



I WORLD of JOURNALS

Directory of Research Journal Indexing

Scientific Research
An Academic Publisher

doi Crossref
EScience Press

DOAJ DIRECTORY OF OPEN ACCESS JOURNALS

RESEARCHBIB ACADEMIC RESOURCE INDEX

O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI

“O‘ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR” JURNALI



«BEST PUBLICATION»

Ilm-ma'rifat markazi ©


MATERIALLARI TO‘PLAMI

10-OKTYABR, 2021-YIL

2-SON, 2-QISM

O‘ZBEKISTON


2021





Ushbu to'plamda "O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali" ilmiy jurnaliga kelib tushgan maqolalar o'rin olgan. Mazkur jurnalda zamonaviy ta'lim tizimini rivojlantirish jarayonida innovatsion ta'lim texnologiyalarini joriy etish va loyihalashtirish, integratsion ta'limni rivojlantirishda yo'nalishlar bo'yicha kreativ g'oyalar, takliflar va yechimlarni amalga oshirish maqsad qilib olingan. Mazkur jurnal materiallaridan OTM professor-o'qituvchilari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari va umumta'lim maktab o'qituvchilari, mustaqil tadqiqotchilar, magistrantlar, ilmiy xodimlar, iqtidorli talabalar hamda shu sohada ilmiy ish olib borayotgan tadqiqotchilar foydalaishlari mumkin.

Eslatma! Jurnal materiallari to'plamiga kiritilgan maqolalardagi raqamlar, ma'lumotlar haqqoniyligiga va keltirilgan iqtiboslar to'g'riligiga mualliflar shaxsan javobgardirlar.





TAHRIRIYAT

Bosh muharrir:

Maqsudov Ulug'bek Qurbonovich
Paedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Mas'ul kotib:

Hakimov Iqboljon
Farg'ona Politexnika instituti

Mas'ul muharrir:

Yusufjonov Quyoshbek Komiljon o'g'li
Farg'ona davlat universiteti

Texnik xodim:

Sobirov Otabek Foziljon o'g'li
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

TAHRIR KENGASHI A'ZOLARI

Tuychiyeva Inoyat Ibragimovna

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Shamsiyeva Maxfuzaxon Xuja qizi

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Saidov Ixtiyor Muzropovich

Farg'ona davlat universiteti harbiy ta'lim fakulteti boshlig'i

Mamatova Nodira Muxtarovna

Tibbiyot fanlari Doktori (Ds)

Rasulova Vasila Batirovna

Toshkent farmatsevtika instituti, Biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Nikadambayeva Hilola Batirovna

Uzbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti,

Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Pirimov Akram Pirimovich

Navoiy davlat pedagogika instituti, dotsent

Shodiyev Furqat Davranovich

*Navoiy davlat pedagogika instituti, Texnika fanlari
nomzodi, Dotsent*

Qurbonova Muqaddas Omonovna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Otaqulov Fozil Sobirovich

Geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Baltayeva Ikbal Tadjibayevna


*O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti. O'zbek tili va adabiyoti kafedrası
dotsenti, filologiya fanlari nomzodi.*

Sayfullayeva Ra'noxon Raupovna

O'zbekiston milliy universiteti. Filologiya fanlari doktori, professor.

Popova Tatyana Igorevna

SanktPeterburg davlat universiteti. Rossiya.Doctor filologicheskix nauk, professor.





Berdaliev Abduvali

Tojikiston. Xo`jand davlat universiteti. Filologiya fanlari doktori.

Manzuraxon Ernazarova

Navoi davlat pedagogika instituti. Filologiya fanlari doktori, professor.

Uluqov Nosirlon Muxammadalievich

Namangan davlat universiteti. Filologiya fanlari doktori.

Jumanazarova Guljahon

Filologiya fanlari doktori. Jizzax davlat universiteti.

A.A.Qosimov

Farg`ona davlat universiteti. Filologiya fanlari doktori, professor.

Jo`rayev Habibullo Abdusalomovich

Filologiya fanlari doktori. Farg`ona davlat universiteti.

Fayzimatov Shuxratjon No`monovich

Farg`ona politexnika instituti. Texnika fanlari doktori.

Hoshimov G`anijon Mirzaaxmadovich

Andijon davlat universiteti. Filologiya fanlari doktori.

Hulkar Hamroyeva

Filologiya fanlari nomzodi, dotsent. O`zbekiston respublikasi yozuvchilar uyushmasi a`zosi, jurnalist.

O`rinboyev No`monjon O`rmonovich

falsafa fanlari nomzodi, dotsent. XTXMOIO`

Qurbonova Muqaddas Omonovna

Filologiya fanlari bo`yicha falsafa doktori. Farg`ona davlat universiteti.

Qunduzxon Atabayevna

Filologiya fanlari doktori, professor. O`zbekiston. Jahon tillari universiteti.

Hojaliyev Ismoiljon Tojiboyevich

Farg`ona davlat universiteti filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

Erofeeva Inna Nikolaevna

Kandidat pedagogicheskix nauk, dotsent. Sankt Peterburg davlat universiteti. Rossiya.

Toshtemirova Zamira Sotvoldiyevna

pedagogika fanlari nomzodi, dotsent. Farg`ona davlat universiteti.


G.O.Abdugafurovich

Filologiya fanlari nomzodi. Farg`ona davlat universiteti.





	<i>“ОЗИҚ-ОВҚАТ ТЕХНОЛОГИЯСИ” ЙЎНАЛИШИ “КИМЁ” КУРСИНИ АМАЛИЙ МАШҒУЛОТ ДАРСЛАРИДА ЎҚИТИШНИНГ ИННОВАЦИОН УСУЛЛАРИ</i>	
14	Abdurazzoqov Shaxzodxo'ja <i>O'ZBEKISTONDA SOLIQ SIYOSATI (MUSTAQLLIKNING DASTLABKI YILLARI)</i>	79
15	Zayniyeva Furuza Bozorovna <i>OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGI. MILLIY GLOBAL OMILLAR</i>	84
16	Yuldashova Shohsanam Baxriddinovna <i>UVAYSIYNING PSIXOLOGIK QARASHLARI</i>	89
17	Xonkeldiyeva Sayyora Shaxobiddinova Madumarova Umida Turdaliyevna <i>TAYANCH HARAKAT TIZIMIDA NUQSONI BOR BOLALAR RIVOJLANISHIDA PSIXOLOGIK XIZMATNING O'ZIGA XOS JIHATLARI</i>	93
18	Ortiqova Mahliyo O'tkirovna <i>EVFEMIZM - NUTQ VOSITASI SIFATIDA</i>	98
19	Mўйдинов Хамидулло Рахматилло ўғли <i>АХЛОҚИЙ ҚАДРИЯТЛАРГА ЁНДАШУВНИНГ АСОСИЙ ЖИХАТЛАРИ</i>	100
20	Alijonova Gulnozaxon Muhammad qizi <i>RIZOUDIN IBN FAXRIDDIN XX ASR QOMUSIY OLIMI</i>	106
21	Bozarov Nuralibek Saidmurod o'g'li Raxmonqulov Ma'murjon G'ofurjon o'g'li Tojiboyev Jaloliddin Murodullayevich <i>AMIR TEMURNING DAVLAT BOSHQARUVIDAGI TAMOYILLARI, USLUBLARI VA SIYOSATI</i>	110
22	Salimova Guzal Qahramon qizi <i>SHAMSIDDIN SAMARQANDIYNING “BAHS-MUNOZARA ODOBI” RISOLASI VA UNGA AHMAD SHAVQIY TOMONIDAN YOZILGAN SHARHNING QIYOSIY TAHLILI</i>	115
23	Bekmuradova Iroda Zokir qizi <i>ERKIN A'ZAM NASRIDA SIFATDOSH O'RAMLARNING SINTAKTIK-STILISTIK XUSUSIYATLARI</i>	119
24	Botirov Shonazar Askar o'g'li <i>BOSHQARUVDA RAHBAR SHAXSINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI</i>	124
25	To'xtasinov Muhammadsodiq Z. Salimjonova <i>JANUBIY KOREA RESPUBLIKASI IQTISODIYOTI JAHON MAMLAKATLARI BILAN OLIB BORILAYOTGAN IQTISODIY MUNOSABATLARI</i>	129
26	Пазылов Торе Арзиевич <i>БОШЛАНҒИЧ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИДА МИЛЛИЙ ХУЛҚ-АТВОРНИ ШАКИЛЛАНТИРИШДА ХАЛҚ ОҒЗАКИ АСАРЛАРИНИНГ АҲАМИЯТИ.</i>	134
27	Muhiddinov Abdumannop Ibronov Ravshanbek G'aniyeva Maftuna <i>JAMIYAT NEGIZIDA BO'LGAN OILADA PSIXOLOGIYANING O'RNI.</i>	138
28	Nurov Dilmurod Elmurodovich Matyakubov Baxtiyar SHamuratovich <i>BUXORO VILOYATINING SHO'RLANISHGA MOYIL TUPROQLARI SHAROITIDA G'O'ZANI TOMCHILATIB SUG'ORISH</i>	141
29	Анваржон Исашов Ходжаева Нодира <i>АНДИЖОН ВИЛОЯТИ ЎТЛОҚИ БЎЗ ТУПРОҚЛАР ШАРОИТИДА СОЯНИ ЯНГИ НАВЛАРИНИ НИТРОГИНИ СУҒОРИШ ТАРТИБЛАРИГА БОҒЛИҚ ҲОЛДА СОЯНИНГ ЎСИБ</i>	149





BUXORO VILOYATINING SHO'RLANISHGA MOYIL TUPROQLARI SHAROITIDA G'O'ZANI TOMCHILATIB SUG'ORISH

Nurov Dilmurod Elmurodovich

*Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari
instituti Buxoro filiali tayanch doktoranti.*

*Ilmiy rahbari: **Matyakubov Baxtiyar SHamuratovich**,
q/x.,f.d.,prof. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash
muhandislari instituti.*

Annotatsiya: Hozirgi kunda Buxoro viloyatidagi sug'oriladigan erlarning 98 % nasoslar orqali sug'orilishi, viloyatda suv tanqisligi ekinlarning hosiliga katta ta'sir ko'rsatmoqda, buni oldini olish maqsadida takomillashtirilgan zamonaviy tejankor sug'orish texnologiyalarini qo'llash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Mazkur maqolada g'o'za dalasida tomchilatib sug'orish usulini qo'llashning ijobiy tomonlari yoritib berilgan. Tomchilatib sug'orishni g'o'za dalasida qo'llash orqali suv tanqisligini yumshatish, er ustidan sug'orish usuliga nisbatan tahliliy natijalarga ko'ra 43 foiz tejalganligi, hosildorlikni 24 foizga oshganligi ya'ni gektariga 4,2 tonna paxta hosili olinganligi to'g'risida ma'lumotlar ilmiy tadqiqotlar natijasida aniqlangan.

Kalit so'zlar: paxta, suv resurslari, sug'orish tizimlari, yer usti sug'orish usuli, tomchilatib sug'orish, suvni tejash, resurslarni tejash, texnologiya.

Ma'lumki, O'zbekistonning g'o'za etishtiriladigan mintaqa hisoblandi. Respublikamizda paxtachilik faqat sun'iy sug'orishga asoslangan xolda amalga oshiriladi. Chunki Respublikamizning arid mintaqaga mansubligi hisoblanadi.

2020 yil 10 iyulida O'zbekiston Respublikasi suv xo'jaligini rivojlantirishning 2020 - 2030 yillarga mo'ljallangan konsepsiyasi ishlab chiqildi. O'zbekiston Respublikasi suv xo'jaligini rivojlantirishning 2020 - 2030 yillarga mo'ljallangan konsepsiyasi ko'ra, suv tejovchi texnologiyalari joriy etilgan maydonlar 2 mln. ga, jumladan, tomchilatib sug'orish texnologiyasi 600 ming ga. maydonga tadbiiq etilib, yiliga 35 - 40 % (3,5-4 mlrd. m³) suv iqtisod qilinishi taqribiy ishlab chiqilib, 298 ming ga. foydalanishdan chiqib ketgan ekin etishtiriladigan maydonlar qayta o'zlashtirishi mumkin [1].

Tadqiqotning asosiy maqsadi: Buxoro viloyati Vobkent tumanidagi "Said Imom Tilav" fermer xo'jaligining o'tloqi - allyuvial, mexanik tarkibiga ko'ra o'rta qumoq tuproq, sizot suvlari sathi 2,0-2,5 m, sizot suvlari mineralizatsiyasi 2,0-3,0 g/l bo'lgan sharoitlarida, g'o'zani tomchilatib sug'orish usulidagi ilmiy asoslangan sug'orish tartibi hamda ularning g'o'zaning o'sishi, rivojlanishi, hosildorligi, paxta tolasining sifat





ko'rsatgichlariga ta'sirini o'rganish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Asosiy qism: Buxoro viloyati Vobkent tumanidagi "Said Imom Tilav" fermer xo'jaligining o'tloqi - allyuvial, mexanik tarkibiga ko'ra o'rta qumoq tuproq, sizot suvlari sathi 2,0-2,5 m., sizot suvlari mineralizatsiyasi 2,0-3,0 g/l bo'lgan sharoitlarda, g'o'zani tomchilatib sug'orish usulidagi ilmiy asoslangan sug'orish tartibi hamda tomchilatib sug'orish usulini g'o'zaning o'sishi, rivojlanishi, hosildorligiga ta'siri o'rganildi. Dala tajribasi g'o'zani ikki xil usulda (er ustidan va tomchilatib) sug'orish jarayonidagi sug'orish tartibi, tuproqning mexanik tarkibi va namlik darajalari aniqlandi. Tajribalar quyida keltirilgan tizim asosida amalga oshirildi (1-jadval).

Tajriba dalasi tuprog'ining mexanik tarkibi N.A. Kachinskiy tavsifi bo'yicha o'rta qumoq mexanik tarkibli tuproqlar turiga kiradi. Tajriba maydoni tuprog'i mexanik tarkibiga ko'ra o'rta qumoq, o'rta tolali "Buxoro-8" g'o'za navi va g'o'za qator orasi 60 sm li qilib ekildi.

1-jadval

Tajriba tizimi.

No	Sug'orishdan oldingi tuproq namligi, CHDNS ga nisbatan %	Sug'orish usuli	Sug'orish me'yori, m ³ /ga
1.	Ishlab chiqarish nazorati	Egatlab sug'orish	Faktik o'lchovlar
2.	70-80-65	Tomchilatib sug'orish	0-50 sm. va 0-70 sm.namlik defitsiti bo'yicha

Izoh: Dala tajriba ishlari 4 ta qaytariqda amalga oshirilgan.

Tajribalarda tuproqning hisobiy qatlamdagi tuproq namligi va suv- fizik xossalari laboratoriya xamda dala sharoitida uslubiyatlar asosida aniqlandi.

Tomchilatib sug'orish usuli qo'llanilgan tajriba dalada tuproq namligi 60 sm, an'anaviy sug'orish usuli qo'llanilgan dalada 100 sm chuqurlikdan tuproq namligi doimiy nazorat qilib borildi.

G'o'zani sug'orish vaqtini belgilashda tuproq namligini tenziometr dan foydalanildi. G'o'zani rivojlanish fazalarida uning suvga bo'lgan talabi o'rganilib, ekinni an'anaviy va tomchilatib sug'orish usullari bilan sug'orishning maqbul variantlari sinovdan o'tkazildi.

Tajriba dalada tomchilatib sug'orish ishlari olib borilgan lavhalar quyida keltirib o'tilgan (1-rasm).





1-rasm. G'ozani tomchilatib sug'orish usulini loyihalash jarayoni


An'anaviy sug'orishda g'ozani sug'orish davri kelganda sug'orish tarmoqlarida suv etishmasligi, suv iste'molchilari o'rtasida sug'orish navbati kechikishi evazsiga g'ozaning suvga bo'lgan talabi qondirilmashligi yoki me'yoridan ortiqcha suv berilishi tufayli hosilning yo'qotilishi xam kuzatildi. Tadqiqot natijasida an'anaviy (er ustidan) hamda tomchilatib sug'orish usuli qo'llanilganda g'ozani sug'orish tartibi bo'yicha aniqlangan ko'rsatkichlar quyidagi jadvalda keltirib o'tilgan (2-jadval).

2-jadval

G'ozani sug'orish tartibi

Oy	An'anaviy sug'orish usuli		Tomchilatib sug'orish usuli	
	Sug'orish me'yori, m ³ /ga	Sug'orish soni, ta	Sug'orish me'yori, m ³ /ga	Sug'orish soni, ta
Iyul	1100	1	830	4
Iyul	2320	2	1870	7
Avgust	1830	2	970	4
Jami:	5250		3670	

Tajriba dalasi tuproqning hajmiy og'irligi vegetatsiya boshida tuproqning hajmiy og'irligi haydov qatlamida (0-30 sm): 1.37-1,40 g/sm³ ni, haydov osti qatlamida (30-50 sm): 1.45-1,48 g/sm³ ni va 0-100 sm qatlamda 1.43-1,45 g/sm³ ni tashkil qildi. Tomchilatib sug'orilgan 2-variantda vegetatsiya oxirida tuproqning hajmiy og'irligi vegetatsiya boshida tuproqning hajmiy og'irligi





haydov qatlamida (0-30 sm): 1.38-1,40 g/sm^3 ni, haydaov osti qatlamida (30-50 sm): 1.46-1,48 g/sm^3 ni va 0-100 sm qatlamda 1.44-1,46 g/sm^3 ni tashkil qiladi yoki 0-100 sm qatlamda 1-variantga nisbatan 0,01 g/sm^3 ga ortishi aniqlandi. Tomchilatib sug'orilgan dala oddiy sug'orilgan dalaga nisbatan tuproqning suv-fizik xossalari ijobiy tomonga o'zgarganligini kuzatishimiz mumkin, jumladan hajm og'irligi va tuproqning suv o'tkazuvchanligi yaxshilanganligini katta ahamiyatga ega hisoblanadi.

Tajribaning 1-variantida egatlab sug'orishni qo'llagan holda, ishlab chiqarish nazoratida vegetatsiya davrida sug'orish 1-3-1 sxemasi bo'yicha g'ozga 5 marta sug'orildi, g'ozaning katta sug'orish me'yori (1440-1540 m^3/ga) hisobiga tuproqning mo'ljallangan qatlamida sug'orisholdi namlik darajasi mutassil yuqori bo'lishi ta'minlandi. Sug'orishlar o'rtasidagi davr 21-26 kunga teng bo'ldi. Egatlab sug'orishni qo'llagan holda, 1-variantda, sug'orish muddatlari, me'yori tahliliga qaraganda, "Buxoro-8" g'ozga navlari CHDNS ga nisbatan 70-80-65% sug'orish tartibida 5 marta sug'orildi. Sug'orishlar oralig'i 21-25 kunni tashkil qilib, sug'orish me'yori o'rtacha 1 gektar maydonga 1006 m^3 ni tashkil etadi. Mavsumiy sug'orish me'yori 5250 m^3/ga ni tashkil qildi.

Tomchilatib sug'orish usuli qo'llanilgan 2-variantda suv berish sxemasi 4-7-4 sxemalari bo'yicha g'ozga 15 marta sug'orildi. Sug'orish muddatlari me'yorlarini tahliliga qaraganda, "Buxoro-8" g'ozga navlari CHDNS ga nisbatan 70-80-65% sug'orish tartibida 15 marta sug'orildi. Sug'orishlar oralig'i 5-14 kunni tashkil qilib, sug'orish me'yori o'rtacha 1 gektar maydonga 245 m^3 ni tashkil etadi. Mavsumda sug'orish me'yori gektariga 3670 m^3 . Tomchilatib sug'orish, egatlab sug'orish (nazorat varianti) ga nisbatan suv sarfi 5250 m^3 ga qaraganda ya'ni 24% ga iqtisod qilindi.

G'ozani sug'orishda er ustidan va tomchilatib sug'orish natijasida olingan g'ozga xosildorligi xamda 1 tonna paxta xosili uchun sarflangan suv miqdorlari aniqlandi (suv mahsuldorligi) (3-jadval).

3-jadval

Suv mahsuldorligining sug'orish usuliga bog'liqligi

Sug'orish usuli	Mavsumiy sug'orish me'yori, m^3/ga	G'ozga xosildorligi, t/ga	Suvning mahsuldorligi, tonna/1000 m^3	Farqi +
Er ustidan sug'orish	5250	3,4	0,65	
Tomchilatib sug'orish	3670	4,2	1,14	0,49

Sug'orish usulini qo'llash natijasida suvning mahsuldorligi tomchilatib sug'orish texnologiyasini qo'llash orqali erishilganligi, ya'ni 1000 m^3 suvni sarflash hisobiga 0,49 tonna ko'p xosil olinganligi tajribadan olingan ma'lumotlarni taxlil qilish orqali erishildi. YUqorida keltirilgan ma'lumotlarni





hisobga olgan xolda tajriba dalada qo'llanilgan tomchilatib sug'orish usulini qo'llashning afzallik tamoyillari tamoyillari quyidagilardan iborat.

1.Sug'orish rejimining o'simlikning suvga bo'lgan talabiga mos xolda etkazib berish;

2.Tuproqdan suvning bug'lanishining sezirarli darajada kayishi;

3.Begona o'tlarni o'sib rivojlanishi olddini olinishi;

4.Suvning dala bo'ylab tarqalmasligi, ya'ni o'simlikning ildiz tizimiga etkazib berilishi;

5.O'simlikka suv bilan birga mineral oziqalar xam etkazib berilishi;

6.O'simlik uchun zarur bo'lgan suv-xavo-ozuqa-issiqqlik va boshqalar muvozanatining saqlanishi.

Egatlab sug'orishga nisbatan tomchilatib sug'orish jarayonida nafaqat suv isrofgarchiligi oldi olindi, balki paxta xomashyosining oldingi ko'rsatkichlariga nisbatan 24 foizga hosildorlik oshdi. Olingan natijalarga asosan, tomchilatib sug'orish usulida ko'chatlar soni gektariga 89 ming dona, paxta hosildorligi o'rtacha gektariga 4,2 tonnani tashkil etdi. Egatlab sug'orishda ko'chat qalinligi 62 ming dona, paxta hosildorligi o'rtacha gektariga 3,4 tonna ni tashkil qildi. Tadqiqotlar mobaynida g'o'zani tomchilatib sug'orish usulida etishtirilganda nafaqat suv tejalishi, balki hosildorlikning ortishi ham kuzatildi. Buning asosiy sabablari o'simlikning ildiz tizimi tarqalgan tuproq qatlami bir tekis namlanishi, xamda mineral o'g'itlarning suvda erigan holda ildiz tizimiga etkazib berilishi natijasida g'o'zani oziqlantirishning samaradorligi oshishi, qator orasiga ishlov berishga barham berilishi hisobiga tuproqning ortiqcha zichlanishi kamayib, o'simlikning rivojlanishi jadallashadi va yuqori hosil nishonalari paydo bo'lishiga zamin yaratildi.

G'o'zani egatlab va tomchilatib sug'orish texnologiyalariga bog'liq holda iqtisodiy samaradorligini aniqlashda qo'llanilgan barcha agrotexnik tadbirlar, jumladan sug'orish va hosilni yig'ib-terib olish uchun ketgan sarf-xarajatlar inobatga olindi. G'o'zadan olingan hosildorlikdan kelib chiqqan holda, shartli sof foydani va rentabellik daraja hisoblandi. Iqtisodiy samaradorlikni hisoblashda qo'llanilgan sug'orish texnologiyasini xarajatlari inobatga olindi. Resurs va xarid narxlar 2021 yildagi ko'rsatkichlarga asosan olindi. Paxta narxini belgilashda Buxoro viloyati Vobkent tumani "Said Imom Tilav" fermer xo'jaligining 2021 yildagi haqiqiy tannarxi asos qilib olindi. Sotishdan tushgan pul tajribada terimlar bo'yicha sanoat naviga asosan hosildorlikni xarid narxlariga ko'paytirish orqali aniqlandi. SHartli foydani aniqlashda, sotishdan tushgan puldan jami xarajatlar olib tashlandi. Tajriba variantlari bo'yicha rentabellik shartli foydani jami xarajatga bo'lib, 100 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

G'o'zani turli sug'orish texnologiyalarida sug'orishning iqtisodiy samaradorligini tajriba variantlari bo'yicha qiymati 4-jadvalda keltirilgan.

4-jadval






“Said Imom Tilav” fermer xo‘jaligining paxta xom ashyosi etishtirish uchun sarflangan xarajatlarning egatlab hamda tomchilatib sug‘orish usulidagi qiyosiy ko‘rsatkichlari

№	Ko‘rsatkichlar	O‘lchov birligi	Egatlab sug‘orish usulida		Tomchilatib sug‘orish usulida		Farqi “+”, “-”	
			1 gektar uchun	Jami gektar uchun	1 gektar uchun	Jami gektar uchun	1 gektar uchun	Jami gektar uchun
1	Ekin maydoni	ga	1	12	1	12	0	0
2	Hosildorlik	s/ga	34	408	42	504	8	96
3	YAlpi hosil	tn	3,4	40,8	4,2	50,4	0,8	9,6
4	Jami xarajatlar	ming so‘m	15850	189000	18794	227000	3150	38000
a)	Ish haqi ajratmalari bilan	ming so‘m	5504	66048	6346	76152	842	10104
	SHundan, “to‘g‘ridan-to‘g‘ri ish haqi” (qo‘lda bajariladigan ishlar uchun).	ming so‘m	2285	27424	1654	19853	-631	-7571
	Terim puli	ming so‘m	2948	35376	4466	53592	1518	18216
	Ijtimoiy sug‘urtaga 12% ajratma (terim pulidan tashqari).	ming so‘m	271	3248	226	2707	-45	-541
b)	Urug‘lik miqdori	kg	35	420	35	420	0	0
	Summasi	ming so‘m	613	7350	613	7350	0	0
v)	Mineral o‘g‘it miqdori (fizik holda).	kg	800	9600	500	6000	-300	-3600
	Summasi	ming so‘m	2247	26967	1405	16855	-843	-10113
g)	O‘simliklarni himoya qilish	ming so‘m	769	9228	769	9228	0	0
d)	Mexanizatsiya xarajatlari	ming so‘m	1768	21216	1220	14640	-548	-6576
	SHundan: shudgorlash	ming so‘m	340	4080	340	4080	0	0
	Nam saqlash va ekish.	ming so‘m	800	9600	800	9600	0	0
	Kul‘tivatsiya (ishlov berish)	ming so‘m	241	2892	80	960	-161	-1932
	Boshqa texnika xizmatlari	so‘m						
e)	YOqilg‘i moylash materiallari	kg	211	2532	167	2004	-44	-528
	Summasi	ming so‘m	1453	17440	1150	13804	-303	-3637
yo)	Sarflangan suv (ming metr kub)	ming metr kub	5250	63000	3670	44000	-1600	-19000
j)	Suv solig‘i	ming so‘m	350	4200	245	2940	-105	-1260
z)	Er solig‘i	ming so‘m	175	2100			-175	-2100
i)	QQS (15%)	ming so‘m	1129	13552	1214	14564	84	1012
k)	Boshqa xarajatlar	ming so‘m	1500	18000	1500	18000	0	0
l)	Tomchilatib sug‘orish texnologiyasi xarajati ((21-8)/3=4,333mln.so‘m)	ming so‘m			4333	51996	4333	51996
5	Jami daromad	ming so‘m	21250	255000	26250	315000	5000	60000
6	Sof foyda	ming so‘m	5742	66000	7456	89472	708	23472
7	Rentabellik	%	35	35	40	40	5	5

Izox: 1 USD = 1100 so‘m., 1 ga = 10000 m²





G'ozani egatlab sug'orish variantida 1 ga maydonda etishtirilgan paxtani sotishdan tushgan mablag' 21250 ming so'mni tashkil qildi hamda 1 ga maydonga qilingan jami ishlab chiqarish xarajatlari 15850 ming so'mdan iborat bo'lib, shartli foyda 5742 ming so'm/ga. ni va rentabellik 35 foizni tashkil etdi. G'ozani tomchilatib sug'orish variantida esa 1 ga maydonda etishtirilgan paxtani sotishdan tushgan mablag' 26250 ming so'mni tashkil qildi hamda 1 ga maydonga qilingan jami ishlab chiqarish xarajatlari 18794 ming so'mdan iborat bo'lib, shartli foyda 7456 ming so'm/ga ni va rentabellik 40 foizni tashkil etdi.

Xulosa:

Tomchilatib sug'orish usuli qo'llanilganda suv berish tizimi 4-7-4 sxemalari bo'yicha g'ozga 15 marta sug'orildi. Sug'orish muddatlari me'yorlarini tahliliga qaraganda, "Buxoro-8" g'ozga navlari CHDNS ga nisbatan 70-80-65% ushlab turildi. Sug'orishlar oraligi 5-14 kunni tashkil qilib, sug'orish me'yori o'rtacha 1 gektar maydonga 245 m³ ni tashkil etadi. Mavsumda jami 1 gektar maydonga 3670 m³ suv quyildi. Tomchilatib sug'orish, egatlab sug'orish (nazorat varianti) ga nisbatan xar gektar g'ozga maydonidan 43% ga suvni tejashga erishildi.

Egatlab sug'orishga nisbatan tomchilatib sug'orish jarayonida nafaqat suv isrofgarchiligi oldi olindi, balki paxta xomashyosi ana'anaviy sug'orish usuliga nisbatan 24 % ga hosildorlik oshdi. Olingan natijalarga asosan, tomchilatib sug'orish usulida ko'chatlar soni gektariga 89 ming dona, paxta hosildorligi gektariga o'rtacha 4,2 tonnani tashkil etdi.

Iqtisodiy tomondan tahlil qilinadigan bo'lsa, g'ozani egatlab sug'orish variantiga nisbatan tomchilatib sug'orish usulini qo'llanilgan xolda 1 ga maydondan olingan shartli foyda 7450 ming so'mni va rentabellik darajasi 40 foizni tashkil qildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 10 iyuldagi "O'zbekiston Respublikasi suv xo'jaligini rivojlantirishning 2020 - 2030 yillarga mo'ljallangan konsepsiyasi" to'g'risidagi 6024-sonli farmoni.

(<https://lex.uz/docs/4892953?otherlang=1>).

2. O'zbekiston Qishloq xo'jaligi ilmiy-ishlab chiqarish markazi olimlari ma'lumoti

(https://www.agro.uz/uz/information/about_agriculture/574/5730/).

3. Sokolov V.I. Vodnoe xozyaystvo Uzbekistana: proshloe, nastoyaysee i buduysee. Izdatel'stva str. 75, Tashkent 2015

(<http://www.cawater-info.net/library/rus/watlib/watlib-01-2015.pdf>).

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 24 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasida suv resurslarini boshqarish va irrigatsiya sektorini rivojlantirishning 2021 - 2023 yillarga mo'ljallangan" 5005-sonli





qarori (<https://lex.uz/docs/5307918?otherlang=1>).

5. Khamidov, M., Muratov, A. Effectiveness of rainwater irrigation in agricultural crops in the context of water resources. IOP Conference Series: Materials Science and Engineering, 2021, 1030(1), 012130.

6. Khamidov, M., Matyakubov, B., Isabaev, K. Substantiation of cotton irrigation regime on meadow-alluvial soils of the Khorezm oasis. // Journal of Critical Reviews, 2020, 7(4), s. 347-353.

7. Khamidov, M., Khamraev, K. Water-saving irrigation technologies for cotton in the conditions of global climate change and lack of water resources. IOP Conference Series: Materials Science and Engineering, 2020, 883(1), 012077

8. Norkulov U., Sattarov O. “Economic efficiency of soybean varieties on irrigation procedures”. // International approved Journal with Global Indexing Impact Factor; 4.526 (SIIF). October. 2019.

9. Abdullayev I, Kazbekov J, Molden D. (2007). Water conservation practices in the Syr Darya Basin of Central Asia: water productivity impacts and alternatives. *Int Water Irrig J* 2. - p.14-17.

10. Molden, D.J. Water for food Water for life.// A comprehensive assessment of water management in agriculture. 2017. p.645.

11. Bekchanov M., Lamers J., Martius C. (2010) “Pros and cons of adopting water-wise approaches in the lower reaches of the Amu Darya: a socio-economic view”. *Water* 2. - p. 200-216.

12. Goldhamer D.A. “Irrigation management”. In: Ferguson L. (ed) *University of California Pistachio. Production Manual. 2009. - p.103-116.*

13. Jeffrey T. Baker, Dennis C. Gitz, John E. Stout, Robert J. Lascano. “Cotton Water Use Efficiency under Two Different Deficit Irrigation Scheduling Methods” *Agronomy*, ISSN 2073-4395, 2015, 5. - p. 363-373.

14. Matyakubov B. “How efficient irrigation can ensure water supply in the Lower Amudarya basin of Uzbekistan” // 2003. *International Water and Irrigation*, 23 (3), pp. 26-27.

15. Buxoro viloyati Amu-Buxoro irrigatsiya tizimlari xavza boshkarmasining 2019-2020 yillardagi xisoboti.

16. <http://agriculture.vic.gov.au/agriculture/farm-management/soil-and-water/irrigation/about-irrigation> (Rivojlangan davlatlarda qo'llaniladigan g'ozani sug'orish tartibi).

